

11. Yaxlit songacha qo'shish (31 + 9)

Yondosh mavzu:
Laylaklar

Xona birliklari,
yaxlit sonlar.



$$\begin{aligned} \text{Football} + \text{Football} &= 12 \\ \text{Basketball} + \text{Ball} &= 17 \\ \text{Basketball} + \text{Football} &= 13 \\ \text{Basketball} + \text{Football} + \text{Ball} &= ? \end{aligned}$$

1. Hisoblashni tushuntiring.

$$\begin{array}{c} \text{○} \\ \text{○} \end{array} = \bigcirc$$

$$\begin{array}{c} \text{○} \\ \text{○} \\ \text{○} \\ \text{○} \end{array} + \begin{array}{c} \text{○} \\ \text{○} \end{array} = \begin{array}{c} \text{○} \\ \text{○} \\ \text{○} \\ \text{○} \end{array} \bigcirc \begin{array}{c} \text{○} \\ \text{○} \end{array} = \begin{array}{c} \text{○} \\ \text{○} \end{array}$$



$$\begin{aligned} 3 \text{ o'nl. } 1 \text{ birl.} + 9 \text{ birl.} &= 3 \text{ o'nl. } 10 \text{ birl.} = 4 \text{ o'nl.} \\ 31 + 9 &= 40 \end{aligned}$$

2. Misollarni yuqorida keltirilgan namuna bo'yicha hisoblang.

$$62 + 8$$

$$37 + 3$$

$$41 + 9$$

$$53 + 7$$



3. Anvar 7 ta laylak, Said Anvardan 2 ta ko'p laylak chizdi, Umar esa Anvar va Said birgalikda chizganidan 4 ta ko'p laylak chizdi. Umar qancha laylak chizdi?

4. Laylaklar haqidagi masala asosida ifodalar tuzing va ularning qiymatlarini hisoblang.

Qora	?	Oq		Urg'ochi	38	Erkak		Bolasi
31		$31 + 9$		9		?		21

11. Yaxlit songacha qo'shish (31 + 9)



5. Hosil bo'lgan yaxlit sonlarni kamayish tartibida qo'yib chiqing va Afrika laylagi nomini toping.

A	75 + 5
I	38 + 1
A	43 + 7
U	27 + 3

B	34 + 6
K	92 + 5
M	81 + 9
R	56 + 4



6. Tenglamalarni yeching.

$$x - 4 = 36$$

$$y - 2 = 58$$

$$z - 7 = 43$$



7. To'g'ri to'rtburchakning eni 13 santimetr, bo'yi undan 7 santimetr uzun. Ushbu to'g'ri to'rtburchakning perimetrini toping.



8. Ifodalar yozing va ularning qiymatini toping:
- 21 va 9 sonlari yig'indisiga 5 sonini qo'shing;
 - 7 soniga 20 va 3 sonlari yig'indisini qo'shing;
 - 18 va 9 sonlari ayirmasiga 31 sonini qo'shing;
 - 8 soniga 45 va 23 sonlari ayirmasini qo'shing.



9. Kamron bir soat davomida laylaklarning in qurishini kuzatib turdi. U qalin shoxlar 46 ta, ingichka shoxlar esa ulardan 4 ta ko'pligini sanab chiqdi. Laylaklar shu vaqt davomida qancha shox keltirishdi?